

Yangi termoelektrik generator qurilmasi ishlab chiqildi

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti "Yuqori sezgirli yarimo'tkazgichli datchiklar" laboratoriyasi olimlari tomonidan 40 Vatt quvvatga ega yangi Termoelektrik generator qurilmasi ishlab chiqildi.



Termoelektrik generator qurilmasi zavod va kombinatlarning texnologik jarayonlarida paydo bo'ladigan issiqlikni elektr energiyasiga aylantirishga mo'ljallangan. Qurilma issiqlikdan elektr energiyasini ishlab chiqarishdan tashqari, issiq suv olish imkonini ham beradi.

Hozirda Fizika-texnika instituti hamda Olmaliq kon metallurgiya kombinati o'rtasida kombinat obyektlarida chiqindi issiqligidan unumli foydalanishni ta'minlash maqsadida, kombinat ehtiyojlari uchun institutda Termoelektrik generator qurilmalarini ishlab chiqarish bo'yicha muzokaralar olib borilmoqda.